XALQ DEPUTATLARI BO‘STONLIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Mustaqillik-14, +998 70 742 1015, Toshkent v. Bo'stonliq t. G'azalkent sh.

2026-yil 13-mart VII-27-17-10-136-K/26 Bo’stonliq tumani

2026-yilda Bo‘stonliq tumani bo‘yicha alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qaroriga asosan tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X. Abduyusupovning axborotini tinglab, Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaning 2026-yil 23-fevraldagi 03-01-DKB/6-sonli yig‘ilish bayonini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Bo‘stonliq tumani hokimning birinchi o‘rinbosari X. Abduyusupovning 2026-yilda Bo‘stonliq tumani bo‘yicha alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar”

to‘g‘risidagi PQ-387-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi inobatga olinsin.

3. 2026-yilda Bo‘stonliq tumani bo‘yicha alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X. Abduyusupov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining birinchi o‘rinbosari E. Turobov, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i Z. Zokirov mazkur qaror ijrosini o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsinlar.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X. Abduyusupov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (U. Aripbayev) zimmalariga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror imzolanganidan so'ng uch oy o'tgach kuchga kiradi.

Kengash raisi **BABAYEV OLIMJON ZAKIROVICH**

Xalq deputatlari Bo’stonliq tumani
Kengashining
2026-yil 13-martdagi
VII-27-17-10-136-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlar stavkalari haqida
MA’LUMOT

Yig‘im turi	**Bir oyga,** *so‘mda*	
	O‘RQ-1105-son Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	**2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori**
Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im.	300 000	360 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im.	150 000	180 000